

EFFECTIVE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING
MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

G.YU.Eshmirzayev

Senior teacher of JDPU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20589885>

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations of digital technologies, their historical formation, the characteristics of digital technologies and their role in modern information technologies. Also, the methodological possibilities of teaching through digital technologies in the educational process are substantiated.

Keywords: “Macromedia flash”, “GIF animation”, “Adobe photoshop”, “Power point”, “Prezi” “Scratch”, algorithm, digital technologies.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘RGATISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

G.YU.Eshmirzayev

JDPU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning nazariy asoslari, ularning tarixiy shakllanishi, raqamli texnologiyalar xususiyatlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalar orqali o‘qitishning metodik imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: “Makromediya flash”, “GIF animation”, “Adobe photoshop”, “Power point”, “Prezi” “Scratch”, algoritm, raqamli texnologiyalar.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimida maktab fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan raqamli texnologiyalari ta‘limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarni qondiradi. Raqamli texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tajribani an‘anaviy dars doirasida Raqamli texnologiyalarni didaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilgan hollarda o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. Ular o‘quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko‘nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta‘limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Ta‘limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma‘naviy-axloqiy sifalarini shakllantirish borasidagi ta‘limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiiq etilmoqda. Shulardan biri, raqamli texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. O‘zbekiston respublikasi “Harakatlar strategiyasi”da ta‘lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini

mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzliksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarining jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakillantirishni taqqoza etadi.

Shuning uchun, boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish tavsiya qilindi. Bugungi kunda dars o'tish va darsning samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning qiziqishini oshirish bu juda muhim hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilarni har tamonlama bilimni oshirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham kompyuterdan foydalanib dars o'tish, kompyuterdagi "Makromediya flash", "GIF animation", "Adobe photoshop", "Power point", "Prezi" "Scratch" dasturlaridan foydalanib har xildagi dasturiy mahsulotlar tayyorlab dars o'tish samara beradi. O'quvchilarning bilimni oshirish uchun o'qish, ona tili, matematika, tabiatshunoslik kabi fanlarda foydalanish kata samara beradi. Misol uchun matematika fanidan dasturiy mahsulotlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yaxshi samara beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi tayyor dasturni ishga tushirishi bilan matematika oid har xil savollar joylashtirilgan bo'limlarni tanlash imkonini beruchi dastur ishga tushadi. Ushbu amaliy dasturda quyidagi ko'rinishdagi mantiqiy shablon chiqadi. Undan o'quvchi savollarga berilgan variantlardan to'g'risini tanlaydi.

Agar javob to'g'ri bo'lsa rag'batlantiriladi, noto'g'ri bo'lsa yana o'ylab ko'rishni talab qiladi (toki to'g'ri javobni tanlagunicha), so'ngra keyingisiga o'tiladi. Keying ko'rinishda bir xil shakillarni topish, davmida esa har xildagi savollar keladi misol uchun "Ortiqchasini top", "Birxilini top" kabi savolar beriladi. Raqamli texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiriladi, bundan o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish-zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakillanadi. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, o'quvchilarni kompyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishiga o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". – T.: O'zbekiston, 2017. 473 b.
2. Eshmirzayev, G. (2021). Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish. Jizzax-2021
3. Eshmirzayev, G. (2021). Boshlang'ich sinflarni o'qitishda elektron darsliklarni o'rni. *Innovations in primary education*, 2(Архив№ 4).
4. Eshmirzaev, G. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda axborot-texnologik kompetentligining o'rni va roli.(NamDU axborotnomasi)